

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISHDA IJTIMOYIY XODIMLARNING VAZIFALARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18244981>

M.M.Abdurahmonova

FarDu ijtimoiy ish kafedrası professori,

Sotsiologiya fanlari doktori, professor

SH.Abdurahmonova

FarDu 1-bosqich magistranti

Annatatsiya

Mazkur ishda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining takrorlanishining oldini olishda ijtimoiy xodimlarning o'rni, vazifalari va mas'uliyati har tomonlama yoritilgan. Tadqiqotda gender zo'ravonlik jabrlanuvchilariga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning umumiy maqsadi, bosqichlari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, jabrlanuvchini aniqlash, zo'ravonlik holatini baholash, hujjatlashtirish, qayta yo'naltirish va keys-menejment asosida ish olib borish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ijtimoiy xodimlarning etik tamoyillarga rioya qilishi, maxfiylikni ta'minlashi, jabrlanuvchining xavfsizligi va huquqiy manfaatlarini himoya qilishdagi vazifalari yoritib berilgan. Ish natijalari gender zo'ravonlikni takrorlanishining oldini olishda ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar

Gender zo'ravonlik, xotin-qizlar, tazyiq, ijtimoiy xodim, ijtimoiy xizmatlar, jabrlanuvchi, keys-menejment, reintegratsiya, hujjatlashtirish, profilaktika, inson huquqlari.

ОБЯЗАННОСТИ СОЦИАЛЬНЫХ РАБОТНИКОВ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ДАВЛЕНИЯ И НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН.

М.М.Абдурахманова

Профессор кафедры социальной работы ФГУ,

Доктор социологических наук, профессор

Ш.Абдурахманова

Аннотация

В данной работе всесторонне рассмотрены роль, функции и ответственность социальных работников в предотвращении повторных случаев давления и насилия в отношении женщин. В исследовании проанализированы общие цели социальных услуг, предоставляемых пострадавшим от гендерного насилия, а также этапы и практические механизмы их реализации. Особое внимание уделено вопросам выявления пострадавших, оценки случаев насилия, документирования, перенаправления и организации работы на основе кейс-менеджмента. Кроме того, раскрыты обязанности социальных работников по соблюдению этических принципов, обеспечению конфиденциальности, защите безопасности, законных прав и интересов пострадавших. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для совершенствования системы социальных услуг в сфере предотвращения повторного гендерного насилия.

Ключевые слова

Гендерное насилие, женщины, давление, социальный работник, социальные услуги, пострадавшая, кейс-менеджмент, реинтеграция, документирование, профилактика, права человека.

THE RESPONSIBILITIES OF SOCIAL WORKERS IN PREVENTING PRESSURE AND VIOLENCE AGAINST WOMEN.

*Professor of the Department of Social Work
of the Fergana State University,*

Doctor of Sociological Sciences, Professor

Sh.Abdurakhmanova

Master's student of the 1st stage of the FSU

Annotation

This paper comprehensively examines the role, functions, and responsibilities of social workers in preventing the recurrence of pressure and violence against women. The study analyzes the general objectives of social services provided to survivors of gender-based violence, as well as the stages and practical mechanisms of their implementation. Particular attention is paid to the identification of

survivors, assessment of violence cases, documentation, referral, and the organization of work based on a case management approach. In addition, the duties of social workers in adhering to ethical principles, ensuring confidentiality, and protecting the safety, legal rights, and legitimate interests of survivors are highlighted. The results of the study have both theoretical and practical significance for improving the system of social services aimed at preventing repeated gender-based violence.

Keywords

Gender-based violence, women, pressure, social worker, social services, survivor, case management, reintegration, documentation, prevention, human rights.

Gender zo'ravonlik jabrlanuvchilariga taqdim qilinadigan ijtimoiy xizmatlarning umumiy maqsadi – gender zo'ravonlikni boshdan kechirgan jabrlanuvchiga ijtimoiy - maishiy muammolar va zo'ravonlik oqibatlarini bartaraf etishda yordam berish, jabrlanuvchini atrofni o'rab turgan hayotga qayta kiritish/reintegratsiya qilish, o'z-o'zini hurmat qilish, o'z hayotini nazorat qilish, jabrlanuvchining qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga ko'maklashish hisoblanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash azob-uqubatlarni kamaytirish, jabrlanuvchini yolg'izlatmaslik, uning jismoniy salomatligini yaxshilash, jamiyatga va oilaga ijtimoiy reintegratsiyani kuchaytirish (zo'ravonlik holatlarining takrorlanmasligi kafolati ostida) va huquqiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatishni o'z ichiga olishi mumkin. Ijtimoiy xizmatlar taqdim qilish jarayoni bosqichma-bosqich ish tartibilari turiga qarab guruhlangan va quyidagi bo'limlarda aloxida qayd etilgan: gender zo'ravonlik jabrlanuvchisini aniqlash, gender

zo'ravonlik hodisasini baholash, xizmatlar taqdim etish, gender zo'ravonlik hodisasini hujjatlashtirish, qayta yo'naltirish, shu jumladan ishni boshqarishni muvofiqlashtirish. Bo'lim yoki bosqichlarning ketma-ket tartibi jabrlanuvchi bilan o'zaro aloqalarda o'zgarishi mumkin, biroq, zo'ravonlik jabrlanuvchisiga ko'rsatiladigan har qanday yordam gender zo'ravonlik jabrlanuvchisini aniqlashdan boshlanadi. Har bir xizmat taqdim etuvchi ijtimoiy xizmatlarni taqdim etuvchi muassasa yoki tashkilotning nizomi va huquqiy ko'rsatmalariga mos keladigan bo'limlarni tashkil etishi va amalga oshirishi mumkin. Agar murojaat qiluvchi yordam/xizmat taqdim etishni so'rab murojaat qilganida gender zo'ravonlikning qandaydir bir shakliga duch kelayotganiga dalil yoki shubha

bo'lsa, unda xizmat taqdim etuvchi kerakli bo'lgan barcha yordamni olishiga ko'maklashishi kerak.

Zo'ravonlik belgilari yoki holatlari aniqlanganida (yuzaga chiqqanida), ijtimoiy xizmat taqdim etuvchi og'ir turmush sharoitida qolgan jabrlanuvchi yoki shaxsga aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xizmatlarni (masalan, mutaxassislar tomonidan bepul maslahat berish, boshpanalarda vaqtincha yashab turish, nafaqa va boshqalar) taqdim qilishi kerak. Gender zo'ravonlikni boshdan kechirgan jabrlanuvchiga yordam berishdan oldin, xizmat taqdim etuvchi o'zining barcha shaxsiy stereotiplari, boshidan kechirgan gender zo'ravonlik holatlari yoki boshqa to'siqlar bartaraf qilingani va hal etilganiga, yo'qligiga ishonch hosil qilishi, bu kabi vaziyatga nisbatan betaraf qolishi va jabrlanuvchiga talab qilinadigan yordamni ko'rsatishi lozim.

Gender zo'ravonlik jabrlanuvchisining hayoti yoki salomatligiga xavf tug'diradigan holatlar bilan bog'liq muammolar bo'yicha shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishi xizmatni taqdim etuvchining ustuvor harakatlaridan biri bo'lishi kerak. Har qanday ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdan avval, og'ir va hayoti uchun xavfli ahvolga tushib qolgan jabrlanuvchini shoshilinch tibbiy yordamini ko'rsatish uchun darhol tibbiy muassasaga yuborilishi lozim. Jabrlanuvchining mustaqilligini hurmat qilish va sir saqlash uning xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. Ushbu qadam, o'z navbatida, zarurat bo'lganida vaziyatga oid keysmenejment xizmatlaridan foydalanish yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchi muassasalarga yuborish uchun jabrlanuvchidan anglangan rozilik olish masalalarini ham qamrab olishi mumkin.

Ijtimoiy xizmat taqdim qiluvchiga tavsiyalar:

- sizga yordam so'rab murojaat qilgan ayol yoki qizga xushmuomalalik bilan do'stona salom bering;
- o'zingizni tanishtiring va tashkilotni huquqiy me'yorlari, taqdim qilanadigan xizmatlarni qisqacha ta'riflab bering;
- ayol yoki qizni o'zini tanishtirishini iltimos qiling;
- xizmatlardan foydalanish maqsadida murojaat qilgan ayol yoki qizning haqiqatan ham gender zo'ravonlik jabrlanuvchisi bo'lganiga aniqlik kiriting;
- gender zo'ravonlik jabrlanuvchisi yoki uning yonidagi hamrohlari bilan jismoniy aloqaga kirishmang, shuningdek, qaltis harakatlardan qoching. Bu gender zo'ravonlikni boshidan kechirgan shaxslar, ayniqsa, jismoniy zo'ravonlikdan aziyat chekayotganlar uchun stressni keltirib chiqarishi mumkin.
- jabrlanuvchidan (ayniqsa jinsiy zo'ravonlik hodisalarida) bir jinsdagi xizmat taqdim qiluvchidan yordam olish istagi haqida so'rang;

- gender zoʻravonlik jabrlanuvchisiga u oʻzi uchun muhim deb bilgan barcha savollarini berishiga imkoniyat yarating;
- turli guruhlariga mansub shaxslarning (masalan, jismoniy yoki ruhiy nogironligi bor, dindor yoxud etnik ozchilikka mansub shaxslar) ehtiyojlarini yodda tuting va ularni amalda qoʻllash uchun bor imkoniyatlaringizni ishga soling;
- maxfiylik va hamdardlik muhitini yarating, murojaatchini diqqat-eʼtibor bilan eshiting va aniqlashtiruvchi savollarni bering (“Gender zoʻravonlik jabrlanuvchisi bilan oʻzaro munosabat qanday boʻlishi kerak” boʻlimiga qarang);
- xizmat taqdim etuvchi muassasa xodimi sifatida oʻzingiz bilan jabrlanuvchi orasida oʻzaro ishonchni shakllantiring. gender zoʻravonlik jabrlanuvchisini aslo yolgʻiz qoldirmang, ayniqsa, unda oʻziga shikast yetkazish ehtimoli, oʻz joniga qasd qilish kayfiyati yoxud shunga oʻxshash noxush holatlar mavjud boʻlsa.

IJTIMOY XODIM JABRLANUVCHINI

TEZKOR YORDAM OLIISHGA YOʻNALTIRISH

“102” Ichki ishlar	yengil va oʻrta ogʻir	“112” dispatcherlik	zoʻravonlik kechki
boʻlimining	jarohat olganida	xizmati va	va tungi vaqtda
navbatchilik	tez tibbiy	“1146” ishonch	sodir etilish
qismiga yoki	yerdamni	telefonlarga	xavfi boʻlganida
profilaktika	chaqirish	murojaat qilish	havfsiz joyga
inspektoriga			farzandlari
murojaat qilish			bilan
			yashirinish

Gender zoʻravonlik hodisasini baholash - Gender zoʻravonlik jabrlanuvchisi aniqlanganidan soʻng, ijtimoiy xizmatlar taqdim etuvchi tomonidan zoʻravonlik oqibatlariga qarshi samarali kurashish uchun resurslar, koʻnikmalar va oʻz vakolatlariga muvofiq kelgusida amalga oshiriladigan ishlar haqida (qoʻllab-quvvatlash/yordam, fakt va dalillarni toʻplash, gender zoʻravonlik hodisasini hujjatlashtirish va boshqa xizmat taqdim qiluvchilarga yoʻnaltirish) qaror qabul qilishi kerak. Baholash jarayoni jabrlanuvchining ruhiy va jismoniy sogʻligʻining holati, uning iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy hayotga va atrof-muhitga boʻlgan munosabati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni olish va ularni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu maʼlumotlarning barchasi xizmat taqdim etuvchiga gender zoʻravonlik jabrlanuvchisining ehtiyojlariga muvofiq va ham jabrlanuvchining, ham gender zoʻravonlikka javoban idoralararo hamkorlikni doirasida masʼul tashkilotlarning mavjud manbalariga muvofiq eng mos rejani ishlab chiqishda qoʻl keladi. Ushbu baholash jarayonini keys-menejment instrumentlaridan

(vositalaridan) foydalangan holda amalga oshirish mumkin. Xizmat ko'rsatuvchi gender zo'ravonlik hodisasini baholash bosqichida bir-biriga o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan bir nechta harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Sifatli xizmatlarni taqdim etish uchun sharoit yaratish:

- jabrlanuvchidan taqdim qilinadigan xizmatlar uchun roziligini oling. Agar jabrlanuvchi mustaqil o'qish va yozish qobiliyatiga ega bo'lmasa, jabrlanuvchining nomidan rozilik bayonnomasi tuzilib, unga o'qib beriladi va ongli ravishda og'zaki roziligi olinadi (ushbu xolat xabardor qilinganlik to'g'risida anglangan rozilik xatida yoki boshqa shaklda aks ettiriladi);

- jabrlanuvchiga uning cheklangan rozilikni taqdim qilishi huquqini tushuntirish. Ya'ni, qaysi ma'lumotlarini oshkor qilishi, qaysilarini sir saqlashini o'zi tanlashi mumkinligi haqida xabardor qilish;

- anglangan rozilik uchun to'liq tegishli ma'lumotlarni taqdim qilish. Boshqa xizmat taqdim qiluvchilar/ muassasalalar bilan ma'lumot almashishning oqibatlari haqida jabrlanuvchini xabardor qilish;

- ko'rsatiladigan yordam hamdardlik asosida, tushunarli, xolis va beg'araz taqdim qilinishiga va buning uchun barcha imkoniyatlar ishga solinishiga jabrlanuvchini ishontiring.

ЗҶРАВОНЛИКНИ ТАКРОРЛАНИШНИ КУЧАЙТИРУВЧИ ВАЗИЯТЛАР



1- rasm (Zo'ravonlikni kuchaytiruvchi vaziyatlar)

Xizmat taqdim qiluvchi gender zo'ravonlik darajasini aniqlashi muhim Buning uchun:

- gender zo'ravonlik jabrlanuvchisi bilan suhbatlashib, zo'ravonlik hodisasi haqida to'liq ma'lumot (zo'ravonlik turi, uni amalga oshirgan shaxs/shaxslar, jabrlanuvchining zo'ravonlik vaqtidagi va hozirgi ahvoli va boshqalar) to'plashi kerak. Bularni zo'ravonlik jabrlanuvchisidan aniq so'rab olish;
- xavf darajasini baholash va jabrlanuvchining o'zini o'zini himoya qilishi uchun ba'zi qoidalarni ishlab chiqish;
- jabrlanuvchiga uning hayotiga gender zo'ravonlikning oqibatlari qanday ta'sir qilganligi haqida savollar berish;
- jabrlanuvchi va uning farzandlarining psixologik-fiziologik va ijtimoiy holatini va sharoitlarini o'rganish;
- bolalarning holatini muhokama qilish: ularning gender zo'ravonlikka, ularning ota-onalariga munosabatini bilish;
- gender zo'ravonlik jabrlanuvchisining sodir bo'lgan hodisa yuzasidan his-tuyg'ularini o'rganish;
- jabrlanuvchining ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlardan, o'zidan, zo'ravonlikni sodir etgan shaxsdan, zo'ravonlikka aloqador boshqa shaxslardan nimalarni kutayotgani va qanday xohish-istaklari borligini o'rganish.

ZO'RAVONLIK TAKRORAN SODIR ETILGANDA

IJTIMOIIY XODIMNI VAZIFALARI

	Ichki ishlar navbatchilik qismiga xabar berish		Oilaviy poliklinika xabar berish va oilaviy shifokorni jabrlanuvchi (va uning farzandlari) sog'lig'i xaqida bilish
	Jabrlanuvchiga inqiroz xizmatlarini taklif qilish (psixolog, yurist, birlamchi ko'mak xonasi)		Zo'ravonlikdan chiqish yo'llarni muhokama qilish va keys ochish/yangilash.

Gender zo'ravonlik haqidagi har bir hodisa ijtimoiy xizmatlarni taqdim qiluvchilar tomonidan albatta hujjatlashtirilishi shart. Mabodo zo'ravonlik voqeasi tarixiga oid hujjatlar bo'lmagan taqdirda ham ushbu hujjatlashtirish yuz bergan hodisa to'g'risidagi eng to'liq ma'lumotni ta'minlab berish imkonini yaratadi. Zo'ravonlik hodisalarini hujjatlashtirish standart shakllar, qo'l bilan yozuvlar,

sxemalar, fotosuratlar, kog'oz registrarlari va boshqa vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Gender zo'ravonlikning har bir hodisasi bo'yicha tegishli ma'lumotlarni to'plash va ularni ma'lumotlar bazasiga kiritish:

a) zo'ravonlik hodisalarining rivojlanishini kuzatish va baholash uchun kerakli ma'lumotlar bazasini yaratadi;

b) ma'lum bir hududda yuz bergan va oshkor bo'lgan holatlar to'g'risida aniq tasavvur beradi;

v) gender zo'ravonlikka javoban idoralararo ko'rilgan choralar faoliyatini baholashga yordam beradi.

Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etuvchi gender zo'ravonlik hodisasi va jabrlanuvchisi haqidagi quyidagi ma'lumotlarni to'plashi kerak:

- Jabrlanuvchi haqidagi umumiy ma'lumotlar (yoshi, ma'lumoti, yashash joyi va yashash sharoitlari, farzandlari soni va boshqalar).

- Zo'ravonlik haqidagi to'liq ma'lumotlarni yig'ish va qayd etish, shu jumladan:

- gender zo'ravonlikni tasdiqlovchi dalillar;
- boshqa noxush hodisalar tarixi, shu jumladan, avvalgi jinsiy sheriklar bilan;
- jabrlanuvchi va zo'ravonlikni sodir etgan shaxs bilan o'zaro munosabatlari;
- zo'ravonlikning turi;
- qurol ishlatilganligi (ishlatilgan bo'lsa qaysi turdagi va qanday ishlatilgan);
- hodisa paytidagi guvohlar, shu jumladan, bolalar ham²⁴.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning takrorlanishining oldini olishda ijtimoiy xodimlar muhim va yetakchi rol o'ynaydi. Ular nafaqat jabrlanuvchini aniqlash va unga birlamchi yordam ko'rsatish, balki zo'ravonlikning ildiz sabablarini tahlil qilish, xavf darajasini baholash va kompleks yordam choralari amalga oshirishga mas'uldir. Ijtimoiy xodimlar tomonidan olib boriladigan professional va hamdardlikka asoslangan yondashuv jabrlanuvchining ruhiy, jismoniy va ijtimoiy holatini tiklashga xizmat qiladi.

Shuningdek, zo'ravonlik holatlarini hujjatlashtirish va idoralararo hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ushbu muammoga tizimli yondashuv shakllanadi. Gender zo'ravonlikning oldini olishda ijtimoiy xizmatlar tizimini mustahkamlash,

²⁴ <https://e-learning.istc.uz/lesson/39e4c0fe-0b89-42fd-93eb-b2e7c75df32a/1/video-lesson?courseName=12-дарс.+Хотин-қизларга+нисбатан+таъйиқ+ва+зўравонликни+такрорланишини+олдини+олишда+ижтимоий+ходимларнинг+вазифалари&topic=6519af54-1ad9-4050-a862-439e09c38acc&topicChild=2e3d9021-364c-4849-8769-1e4e65e0f6da&childTopicId=2e3d9021-364c-4849-8769-1e4e65e0f6da>

xodimlarning malakasini oshirish va huquqiy mexanizmlarni samarali qo'llash jamiyatda zo'ravonliksiz muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023 (yangi tahrir)
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 02.09.2019.
3. O'zbekiston Respublikasining "Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni. 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va qarorlari.
5. BMT. Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etish to'g'risidagi Deklaratsiya. – Nyu-York, 1993.
6. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha amaliy qo'llanma.
7. UNICEF. Gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha metodik tavsiyalar.